

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

*QISHLOQ XO‘JALIGIDA XALQARO
IQTISODIY MUNOSABATLAR*

fani bo‘yicha uslubiy qo‘llanma

TOSHKENT – 2014

Mazkur uslubiy qo'llanma qishloq xo'jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida jahon xo'jaligi rivojlanish xususiyatlarini va uni tashkil etuvchi mamlakatlar iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligi yaxlit bir tizimdan iborat ekanligini, uning barcha tarkibiy qismlari milliy va jahon bozorlarida barqaror darajada o'zaro iqtisodiy hamkorlik qilishini nazarda tutadi. Juhon qishloq xo'jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining asosiy qonuniyatları hamda yetakchi rivojlangan mamlakatlari qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarini o'rgatadi.

Uslubiy qo'llanma agrar oliygochlarning iqtisodiy "Fermer xo'jaligini boshqarish" yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavr va magistrler, tadqiqotchi va aspirantlar, o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari, o'qituvchilar hamda qishloq xo'jalik mutaxassisllari uchun mo'ljallangan.

TUZUVCHILAR:

Muratov A.— "Fermer xo'jaligini boshqarish" kafedrasi dotsenti
Alieva N.A. — "Fermer xo'jaligini boshqarish" kafedrasi
assistenti

TAQRIZCHILAR:

Abdugaffarov A.A.— TITUhuzuridagi "Dacturiy mahsulotlarva
apparat-dacturiymajmualaryaratish" markaziprofessori,
iqtisodfanlardoktori
Ernazarov Sh.—"Qishloqhujaligi iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti

Uslubiy qo'llanma «Fermer xo'jaligini boshqarish» kafedrasining 20 yil
_____ -sonli, « Fermer xo'jaligini boshqarish » fakulteti o'quv-uslubiy
komissiyasining 20 yil _____ -sonli, ToshDAU o'quv-uslubiy kengashi
yig'ilishining 20 yil _____ -sonli bayonnomalari bilan ma'qullangan va chop
etishga tavsiya qilingan.

Semenar mavzulari

Nº	Mashg‘ulotlar nomi
1.	Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanning maqsadi va vazifasi
2.	Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda hamda jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni
3.	Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligining o‘rni rivojlanish xususiyatlari
4.	yetakchi mamlakatlar qishloq xo‘jaligining tajribasini rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbiq etish
5.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jaligining o‘rni rivojlanish xususiyatlari.
6.	Rivojlananayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini salmog‘i.
7.	Mustaqil Davlatlar Xamdo‘stligi qishloq xo‘jaligi
8.	Jahon qishloq xo‘jaligining mehnat resurslaridan foydalanish
9.	Jahon qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasi va uni innovatsion rivojlantirishning yo‘nalishlari
10.	Jahon qishloq xo‘jaligida mehnat bozori hozirgi holati va shakllanish xususiyatlari
11.	Qishloq xo‘jaligida kapitalning xalqaro harakati
12.	Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlarva tashqi savdoning o‘rni
13.	Xalqaro valyuta, moliya va kredit munosabatlari
14.	O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini tutgan o‘rni

1-mavzu. Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanning maqsadi va vazifasi

Darsning maqsadi: Talabalarga “Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanining ahamiyati, zarurligi,fanning predmeti va o‘rganish usullari, asosiy xususiyatlarini, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi, jahon savdosi, mamlakatlarning XIMdagи ishtirokini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlari, jahon xo‘jaligi axamiyatiga doir ko‘nikmalar berish.

Seminar rejasi:

1. Juhon qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar faniining predmeti

2. Asosiy tushunchalar

3. Juhon qishloq xo‘jaligining asosiy taraqqiyot tendensiyalari va jahon qishloq xo‘jaligi tumanlari

4. Xalqaro iqtisodiy aloqalar va fan-texnika aloqalari

Darsning shakli: Seminar savollari bo‘yicha guruh taqsimoti.

Darsga oid jihozlar: -Markerlar, flamaster, plakatlar, kerakli adabiyotlar, dunyo xaritasi.

Izoh: Marker va plakat bo‘lmaqda taqdirda sinf taxtasi,bo‘rdan foydalanish mumkin.

Darsning tuzilishi: -Tashkiliy daqiqa,

-Yangi mavzu bo‘yicha guruhda ishlash,

-Guruh taqdimoti,

-Guruh ishining yakuni,

-Darsga yakun yasash va vazifa.

Ma'lumot uchun materiallar:

1. Karimov I. A Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar “O‘zbekiston” 2009 yil.

2. KarimovI.A “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” -Toshkent, “O‘zbekiston” 2010 y.

3. Karimov I.A.. “Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralar”, Toshkent, “O‘zbekiston” 2009.

4.B.T.Salimov va boshqalar “Jaxon qishloq xo‘jaligi”-T.: 2004 y.

5.Tursunxodjaev T.L. - Juhon qishloq xo‘jaligi va uning taraqqiyoti - T.: 1993y

6. G.Nazarova.Xalqaro iqtisodiy aloqalar. Toshkent. 2005yil.

8. Rustamova I.B, Narinboeva G.K .Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv ko‘llanma. Toshkent. ToshDAU nashr tahririysi. 2007y.

“Juhon qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani jahon qishloq xo‘jaligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini, mintaqalar hamda ayrim mamlakatlarda taraqqiy etishining o‘ziga xos xususiyatlarini; qishloq xo‘jaligining inson hayotida tutgan o‘rni, bu boradagi texnik-iqtisodiy sharoit, bozor munosabatlari, iqtisodiy mexanizm, tabiiy resurslar, mehnat resurslari va moddiy-texnika bazasi, xalqaro iqtisodiy aloqalar va fan-texnika aloqalari, o‘simgilikchilik va chorvachilik mahsulotlarini jahon miqyosida yetishtirish kabilarni o‘rgatadi.

Bunda jahon mamlakatlari qishloq xo‘jaligi 3 guruh – rivojlangan mamlakatlar, demokratiya asosida rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha o‘rganiladi.

Qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy sohasidir, «. “Juhon qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani bu sohani jahon miqyosida 3 guruhga – rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligi, demokratiya asosida rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jaligi va rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jaligi guruqlariga bo‘lib o‘rganiladi. Bunda qishloq xo‘jaligining tutgan o‘rni, bu jarayondagi yutuq va kamchiliklar tahlil etib boriladi.

Qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismini va sanoat uchun xom ashyoning anchagini qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi asosan ikkita yirik tarmoqdan –

dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi o‘simlik va chorvachilik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlaydigan bir qancha tarmoqlarni ham o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan faol aholining taxminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko‘pincha 80-90%dan ortig‘i qishloq xo‘jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 60%dan ortadi, rivojlangan mamlakatlarda 10%ni tashkil etadi. Qishloq aholisining ijtimoiy muammolari, joylashishi qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bir qancha mamlakatlarda o‘rmon xo‘jaligi ham qishloq xo‘jaligi tarkibiga kiradi.

Qishloq xo‘jaligi aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish bilan birga qator sanoat tarmoqlari (oziq-ovqat, omixta yem, to‘qimachilik, dori-darmon, atir-upa sanoati va boshqalar)ni xom ashyo, ot-ulov (yilqichilik, bug‘uchilik va hokazo) bilan ta‘minlaydi, dehqonchilik tarmoqlari (dalachilik, sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik va boshqalar) hamda chorvachilik tarmoqlari (qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik kabilar) ni o‘z ichiga oladi. Bu tarmoqlarni birgalikda rivojlantirish moddiy va mehnat resurslaridan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi ko‘lami kengayib, mahsulot yetishtirish hajmi o‘sib borayotganligiga qaramay, dunyo aholisining muayyan qismi to‘yib ovqat yemaydi, o‘n va hatto yuz millionlab aholi ko‘pincha och qoladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining anchagina qismi, rivojlangan mamlakatlar aholisining moddiy jihatdan yaxshi ta‘minlanmagan guruhlari ana shular jumlasidandir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimidagi munosabatlar tushuniladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizimi esa o‘z ichiga xuquqiy meyorlarni va ularni amalga oshirish vositalarini (xalqaro iqtisodiy shartnomalar, kelishuvlar, ”kodekslar”, xartiyalar va x.k.), xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida amalga oshirishga yo‘naltirilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning faoliyatini oladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik ishlab chiqarish, moliya, bank va sug‘urta faoliyati, ta‘lim va kadrlarini tayerlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali aloqalarni o‘rnatishi va kengaytirishiga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati. Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosи sohasidagi tadbirdorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish. Chet ellik investorlar tomonidan tadbirdorlik faoliyati ob'ektlariga hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlariga kiritilaetgan moddiy va nomoddiy ne‘matlarning barcha turlari hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deb e’tirof etiladi.

Qishloq xo‘jaligi qadim zamonlardan rivojlnana borgan. Madaniy o‘simliklar vujudga kelgan hududlarida, Lotin Amerikasi va Afrikaning tog‘li rayonlarida, Osiyoning daryo havzalarida dehqonchilikning vujudga kelganiga ko‘p ming yillar bo‘lgan. G‘arbiy yarim sharda, Avstraliyada va boshqa bir qancha hududlarda yangi qishloq xo‘jalik rayonlari vujudga kelgan. Bu o‘lkalardagi katta maydonlarda yerlarning o‘zlashtirilishi kapitalizmning taraqqiyoti bilan bog‘liqdir.

Rivojlangan mamlakatlarning agrar munosabatlari mayda sohibkorlarning qashshoqlikda hayot kechirishida va ommaviy ravishda xonavayron bo‘lishida, yirik qishloq xo‘jalik korxonalar iqtisodiy qudratining o‘sishida, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga moliya va savdo-sanoat monopoliyalarining kirib borishida o‘z aksini topdi. yerga bo‘lgan yirik mulkchilik undan bevosita ishlab chiqaruvchilarni ajratib olish yo‘li bilan yollanma ishchilar sinfining paydo bo‘lishiga imkon yaratadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha katta rol o‘ynaydi. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligining salmog‘i rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘rtacha 22%ni, rivojlangan mamlakatlarda 4%ni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlarda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmidan ko‘prog‘i yetishtirilmoqda. Lekin qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari va eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari asosan rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa agrar xom ashyo uchun qo‘sishimcha hudud bo‘lib qolmoqda. Aynan shu mamlakatlar agrar iqtisodiyotida ishga layoqatli aholining yarmiga yaqini banddir. Oziq-ovqat muammosini hal etish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda qiyin va og‘ir vazifa bo‘lib qolmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda agrar masalaning hal qilinishi qishloqlarda ishlab chiqarish munosabatlarining barcha eskirgan shakllarini tugatishga imkon beradi. yer munosabatlariga jiddiy o‘zgarishlar kirituvchi agrar tub islohotlar Osiyo va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan dolzarb vazifadir. 2006 yilgi ma'lumotlarga ko‘ra, jahonda 6 mlrd.dan ortiq aholi yashaydi. Bu boradagi ko‘rsatkich 1960 yilda 3 mlrd. edi. Demak, 2006 yilga kelib, aholi soni 2 marotaba o‘sgan. Ularni oziq-ovqat bilan ta‘minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Dunyo aholisining 60 – 70%i o‘rtacha darajada ovqatlanadi. Jahan mamlakatlarida aholi jon boshiga oziq-ovqat ishlab chiqarish ko‘rsatkichi indeksi sur’atlari juda sekin o‘smoqda.

Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

Jahon xo‘jaligi uchun mulkchilikning qaysi turi xos? A) Aralash B) Xususiy C) Davlat mulki D) Aksioner mulki	Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti-bu A) Jahon iqtisodiyoti asosiy jarayonlari B) O‘zaro iqtisodiy aloqalar C) Bozor iqtisodini ob‘ektiv qonunlari D) Mamlakatlar o‘rtasida qishloq xo‘jalik aloqalar tizimi
Jahon xo‘jaligi nima? A) Dunyodagi barcha davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, texnikaviy va madaniy xamkorlik shakllari B) Dunyodagi davlatlar milliy xo‘jaliklarining yig‘indisi C) Bir-biriga bog‘liq munosabatlar tizimi D) Chuqur integratsion munosabatlar	Xalqaro iqtisodiy munosabatlar- bu A) Mamlakatlar o‘rtasida xo‘jalik aloqalar tizimi B) Xalqaro kapital harakati C) Xalqaro axborot va texnologiyalar ayriboshlash D) Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi
Jahon qishloq xo‘jaligining iqtisodiy potensiali qaysi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi? A) Yalpi ichki mahsulot bilan; B) Tashqi savdo bilan; C) Mehnat resurslari bilan; D) Chet el sarmoyalari bilan;	Jahon qishloq xo‘jaligida maxsus iqtisodiy zonalar turlari? A) Erkin savdo zonasi; B) Tashqi aloqalar zonasi; C) Inflyasiya zonasi; D) Sanoat zonasi;
Jahon xo‘jaligini rivojlanish davri qaysi davrlardan boshlandi. A) XIV asr oxiri-XV asr boshlarida	Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qaysi qit‘ada ko‘p. A) Osiyo qit‘asida

B) XV asr oxiri-XVI asr boshlarida C) XVI asr oxiri-XVII asr boshlarida D) XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida	B) Afrika qit'asidaa C) Amerika qit'asida D) yevropa qit'asida
---	--

Nazorat uchun savollar:

- Nazorat va muhokama uchun savollar
1. Qishloq xo‘jaligining milliy daromadni yaratishda qanday ahamiyatga ega?
 2. Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishning asosiy bazasi ekanligi nima bilan belgilanadi?
 3. “Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?

Dars yakuni: O‘qituvchi darsga yakun yasar ekan, muhokama qilingan masalalar bo‘yicha umumiy xulosalarni bayon qiladi, darsda faol ishtirot etgan talabalarni baholaydi, mustaqil ishslash uchun vazifalar beradi.

2-mavzu. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda hamda jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni

Darsning maqsadi: Juhon bo‘yicha ham qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va tarmoqlaridan bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismini va sanoat uchun xom-ashyoni ko‘p qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi asosan ikkita yirik tarmoqdan-dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha dunyo aholisi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlariga yetkazib beradi. qishloq xo‘jaligi o‘zining tarmoqlarida yetkazilgan mahsulotlarini birlamchi ya’ni dastlabki qayta ishlovchi bir qancha tarmoqlarni ham o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan faol aholining tahminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko‘pincha 80-90 foizdan ko‘proq kishilar qishloq xo‘jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 60 foizdan ko‘p bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Juhon mamlakatlari qishloq xo‘jaligida aholining ijtimoiy muammolari, joylashishi tarmoq bilan chambarchas bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda hamda jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida talabalarga ma'lumotlar berish.

Semenar rejasi:

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda hamda jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i - oziq-ovqat mahsulotlari va texnik xom ashyonining asosiy manbai
3. Juhon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish geografiyasi bo‘yicha guruhlar
4. O‘zbekiston eksport faoliyati tahlili.

Darsga oid jihozlar: Markerlar, flamaster, plakatlar, kerakli adabiyotlar, tarqatma materiallar, dunyo xaritasi.

Darsning tuzilishi: Tashkiliy daqiqa, guruhlarda ishslash, bahs-munozara, dars yakuni.

Noa'nnaviy amaliy mashg‘ulot: ”Aqliy hujum” bilan boshlanadi. Chunki talabalarda yetarli bilim va ko‘nikmalar mavjud .O‘qituvchi buni ”Aqliy hujum” orqali tasdiqlaydi va shundan so‘ng talabalarni guruhlarga bo‘lib, ularga vazifalarini bajarishga ruxsat beradi.

Amaliy mashg‘ulot usuli: Bahs-munozara

Ma'lumot uchun materiallar:

1. Karimov I. A Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar “O‘zbekiston” 2009 yil.

2. Karimov I.A “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” -Toshkent, “O‘zbekiston” 2010 y.
3. Karimov I.A.. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralar”, Toshkent, “O‘zbekiston” 2009.
- 4.B.T.Salimov va boshqalar “Jaxon qishloq xo‘jaligi”-T.: 2004 y.
- 5.Tursunxodjaev T.L. - Jahon qishloq xo‘jaligi va uning taraqqiyoti - T.: 1993y
6. G.Nazarova.Xalqaro iqtisodiy aloqalar. Toshkent. 2005yil.
8. Rustamova I.B, Narinboeva G.K .Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv ko‘llanma. Toshkent. ToshDAU nashr tahririysi. 2007y.

Jahon bo‘yicha ham qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismini va sanoat uchun xom-ashyoni ko‘p qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi asosan ikkita yirik tarmoqdan - dehqonchilik va chorvachilikdan iborat.

Jahon mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘lamni kengayib, uning xajmi o‘sib borayotganligiga qaramay, dunyo aholisining muayyan qismi to‘yib ovqat yemaydi, o‘n va xatto yuz milionlab aholi ko‘pincha och qoladi. Kambag‘al hamda rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining anchagini qismi guruhlari ana shular jumlasidandir.

Iqtisodiy jihatdan faol aholining tahminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko‘pincha 80-90 foizdan ko‘proq kishilar qishloq xo‘jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 60 foizdan ko‘p bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Jahon mamlakatlari qishloq xo‘jaligida aholining ijtimoiy muammolari, joylashishi tarmoq bilan chambarchas bog‘liqidir.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining iste’molchisi insondir. Shuning uchun, avvalo, yer yuzida aholi sonining o‘sish darajasini aniqlab olish lozim.

Darhaqiqat, yer yuzidagi aholi soni 1960 yilda 3 mldr. edi. 2012 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 7 mldr.dan oshdi. Demak, yer yuzida aholi soni har yili o‘rtacha 2% o‘sib bormoqda, yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati rivojlangan mamlakatlarda 1%ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2,5 – 3%ni tashkil etmoqda.

Hozirgi vaqtda talabga nisbatan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan taklif o‘rtacha 70 %ga yetdi.

Jahon aholisining 72%i past, 25%i yuqori daromad oladigan sharoitda yashaydi.

Jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanish geografiyasi bo‘yicha guruhlar qo‘yidagicha belgilangan:

- Rivojlangan mamlakatlar. Bu guruhgaga shimoliy Yevropa mamlakatlari, AQSh, Yaponiya kiradi. Ularda oziq-ovqat mahsulotlari o‘z ehtiyojidan ortiq yetishtiriladi.
- Rivojlanayotgangan mamlakatlar, masalan:
 - Janubiy Yevropa mamlakatlari – Gretsiya, Portugaliya, Turkiya, Lotin Amerikasi mamlakatlari. Ularda oziq-ovqat mahsulotlari jon boshiga me'yorga yaqin darajada yetishtirilmoqda.
 - Sharqiy mamlakatlar – Hindiston, Misr, Indoneziya. Ularda mahsulotlar me'yor darajada yetishtirilmoqda.

Sust rivojlanayotgangan davlatlar ikki guruhgaga bo‘linadi:

a) jon boshiga yillik o‘rtacha daromad 1270 AQSh dollaridan to‘g‘ri keladigan mamlakatlar; bu guruhgaga 58 ta mamlakat kiradi

b) jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik daromad 120-450 AQSh dollar; bu guruhgaga 39 ta davlat kiradi.

Jahon mamlakatlarida qishloq xo‘jaligida jon boshiga yetishtirilgan mahsulotlar hajmi har xil. Agar rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari jon boshiga me'yordan yuqori yetishtirilayotgan bo‘lsa, kambag‘al davlatlarda esa o‘ta past. Shu sababli qashshoq mamlakatlar aholisi ocharchilik sharoitida yashamoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda mehnat resusrlarining 2-5%i, aksariyat kam taraqqiy etgan mamlakatlarda esa 90%gachasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mehnat qiladi.

Tabiiy shart-sharoit deganda, qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga bevosita ta’sir etuvchi omillar – yer resurslari, o‘simliklarning o‘sib-unishi, issiqlik, namlik, yorug‘lik darajalari tushuniladi. yer – qishloq xo‘jaligida asosiy vositadir. yer yuzida qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yer hajmi – 4,5 mlrd. hektar bo‘lib, uning hammasidan to‘liq foydalanilmaydi.

Foydalaniladigan yerlar sobiq SSSRda – 16, Yevropada – 10, va Okeaniyada – 3%ni tashkil etadi.

Jahon qishloq xo‘jaligining asosiy taraqqiyot tendensiyalari va jahon qishloq xo‘jaligi tumanlari.

Fabrika-fermalar, agrokomplekslar va yirik oilaviy fermalar rivojlangan mamlakatlarda tovar mahsulot yetkazib beradigan asosiy xo‘jaliklar bo‘lib qoldi. Fabrika-fermalar industrial turdag'i yirik ixtisoslashgan yirik qishloq xo‘jalik korxonalari bo‘lib, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda texnologik davrning ayrim jarayonini (mollar va parrandalarni semirtirib boqish, so‘yish va hokazo) bajaradi. Agrokomplekslar ham industrial turdag'i yirik qishloq xo‘jalik korxonalari sirasiga kiradi, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Ularda ayrim jarayonlar xo‘jalikning tegishli tarmoqlarida bajariladi. Agrokomplekslar ham industrial turdag'i yirik qishloq xo‘jalik korxonalari sirasiga kiradi, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Ularda ayrim jarayonlar xo‘jalikning tegishli tarmoqlarida bajariladi

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha katta rol o‘ynaydi. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligining salmog‘i rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘rtacha 25%ni, rivojlangan mamlakatlarda 4%ni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlarda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmidan ko‘prog‘i yetishtirilmoqda. Lekin qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari va eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari asosan rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa agrar xom ashyo uchun qo‘sishma hudud bo‘lib qolmoqda. Aynan shu mamlakatlar agrar iqtisodiyotida ishga layoqatli aholining yarmiga yaqini banddir. Oziq-ovqat muammosini hal etish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda qiyin va og‘ir vazifa bo‘lib qolmoqda.

Jahon qishloq xo‘jaligi 7 tumanga bo‘linadi:

- Afrikaning Janubiy Sahrosi;
- Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari;
- Janubiy va Sharqiy Osiyo;
- Avstraliya va Okeaniya;
- Janubiy va Markaziy Amerika;
- Shimoliy Amerika;
- Yevropa mamlakatlari.

Jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari ham inqirozning oldini olish, uning ta’sir darajasini pasaytirish borasida turli ko‘rinish va ko‘lamlardagi harakatlarni boshlab yubordi. Ushbu chora-tadbirlarning o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash maqsadida jahondagi rivojlangan mamlakatlarning “Katta sakkizlik” va “Katta yigirmalik” guruhlari doirasida bir necha bor sammitlar o‘tkazildi.

“Katta yigirmalik” guruhi (G-20) rasman 1999 yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadigan quyidagi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlat kiradi: Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSh, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi.

Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

<p>Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini respublika yalpi mahsulotidagi salmog‘ini aniqlash usullari?</p> <p>A) Qishloq xo‘jaligi jami xarajatlarini respublika ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga taqsimlab; ;</p> <p>B) Qishloq xo‘jaligi mahsulotining qiymatini respublika yalpi mahsuloti qiymatiga bo‘lib;</p> <p>C) Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini milliy daromad summasiga taqsimlab;</p> <p>D) Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini jami sanoat mahsulotlariga bo‘lib;</p>	<p>“Trans-milliy” korporatsiya deb nimaga aytiladi ?</p> <p>A)Jahonning turli davlatlarida bo‘lim va filiallarga ega bo‘lgan yirik xususiy-kapitalistik firma</p> <p>B) Rivojlanayotgan davlatlar hisobiga yuqori foyda olayotgan rivojlangan davlatlarning monopoliyalari</p> <p>C) Faqtgina YaID turkumiga kirgan davlatlar xududida joylashgan filial va bo‘limlar</p> <p>D) Xalqaro firmalararo mehnat taqsimoti</p>
<p>Jahon qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi nimalardan iborat?</p> <p>A) Xalq xo‘jaligining xom-ashyo hamda mahsulotlar bilan ta‘minlash;;</p> <p>B) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>C) Jahon aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash;</p> <p>D) Aholini ish bilan ta‘minlash;</p>	<p>Jahon qishloq xo‘jaligida aholini oziq-oqat mahsulotlar bilan ta‘minlanganligi qanday aniqlanadi?</p> <p>A) Yalpi mahsulotni mehnat resurslariga bo‘lib;</p> <p>B) Jami aholi sonini yetishtirilgan mahsulotlar miqdoriga bo‘lgan holda;</p> <p>C) Yalpi mahsulot qiymatni aholi bosh soniga nisbati bilan;</p> <p>D) yetishtirilgan mahsulot miqdorini aholi boshi soniga bo‘lib</p>
<p>Jahon qishloq xo‘jaligida mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy yo‘llari?</p> <p>A) Ekstensiv rivojlantirish;</p> <p>B) Ekin maydonlarini, chorva hayvonlarining bosh sonini oshirish;</p> <p>C) Mashina, traktor va boshqa texnikalarni ko‘plab sotib olish;</p> <p>D) Intensivlashtirish natijasida hosildorlikni oshirish;</p>	<p>Yer yuzida qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yer xajmi qancha?</p> <p>A) 4,5 mldr.gektar</p> <p>B) 3,5 mldr. gektar</p> <p>C) 5 mldr. gektar</p> <p>D) 6 mldr. gektar</p>
<p>Jahon qishloq xo‘jaligi nechta tumanga bo‘lib o‘rganiladi?</p> <p>A) 7 ta</p> <p>B) 8 ta</p> <p>C) 5 ta</p> <p>D) 9 ta</p>	<p>AQShda qishloq xo‘jaligida aholining necha foizi band?</p> <p>A) 5-8%</p> <p>B) 3-4%</p> <p>C) 10-12%</p> <p>D) 1-3%</p>

Nazorat uchun savollar:

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda hamda jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni qanday?
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosiy manbai nimalardan iborat?
3. Jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanish geografiyasi bo‘yicha guruhlar?

Dars yakuni: O'qituvchi darsga yakun yasar ekan, muhokama qilingan masalalar bo'yicha umumiy xulosalarni bayon qiladi, darsda faol ishtirok etgan talabalarni baholaydi, mustaqil ishslash uchun vazifalar beradi.

3-mavzu. Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligining o'rni rivojlanish xususiyatlari

Darsning maqsadi: Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi asosan tabiiy resurslаран qanday foydalanishlik darajasiga va shuningdek uzoq yillarga mo'ljallangan zamонавиу ilmiy-texnikaviy taraqqiyotidagi o'zgarishlarga bog'liqdir.

Shuning uchun ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalaniladi, ishlab chiqarishda esa enegetika quvvati pasayishiga yo'l ko'yilmaydi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi qanchalik yuqari bo'lmasin, narx-navoning ko'tarilishi ushbu davlatlarda yalpi ishlab chiqarish yuqoriligidcha qolmoqda.

Semenar rejasi:

1. Jalon xo'jaligida rivojlangan davlatlarning tutgan o'rni.
2. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligining ulushi.

Darsga oid jihozlar: Markerlar, flamaster, plakatlar? kerakli adabiyotlar, dunyo xaritasi, tarqatma materiallar.

Darsning tuzilishi: Tashkiliy daqiqa, guruhlarda ishslash, babs-munozara, dars yakuni.

Noa'naviy amaliy mashg'ulot: Talablarda yetarli bilim va ko'nikmalar mavjud. O'qituvchi buni "Aqliy hujum" orqali tasdiqlaydi va shundan so'ng talabalarni guruhlarga bo'lib, ularga vazifalarini bajarishga ruxsat beradi.

Amaliy mashg'ulot usuli: Bahs-munozara

Ma'lumot uchun materiallar:

- 1.B.T.Salimov va boshqalar "Jaxon qishloq xo'jaligi"-T.: 2004 y.
- 2.Tursunxodjaev T.L. - Jalon qishloq xo'jaligi va uning taraqqiyoti - T.: 1993y
3. G.Nazarova.Xalqaro iqtisodiy aloqalar. Toshkent. 2005yil.
4. Rustamova I.B, Narinboeva G.K .Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv ko'llanma. Toshkent. ToshDAU nashr tahririysi. 2007y.
- 5.Vaxobov A.B., Tadjibaeva D.A.,Xajibakiev Sh.X. "Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar "/ Moliya T-2011.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng jahonning ko'plab (160 dan ortiq) mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy-diplomatik va madaniy xamkorlik qilmoqda.

Shu sababli jahon mamlakatlari bilan xalqaro iqtisoiy munosabatlarni to'g'ri olib borish uchun ham boshqa bir qator davlatlarning (ayniqsa, rivojlangan yetakchi davlatlar bilan) iqtisodiy rivojlanish yo'llarini keng, har tomonlama o'rganish va xulosalar chiqarish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasi Respublika Prezidenti IKarimov, - "Bizning istiqlol va taraqqiyot yo'limiz respublikaning o'ziga xos turmush tarzini, shart-sharoitlarini va xususiyatlarini, halq an'analari va urf-odatlarini xar tomonlama hisobga olishga asoslangan. Ayni paydajahon mamlakatlari amaliyoti to'plagan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga o'tgan mamlakatlar ortirgan ijobjiy tajribalarni xam hisobga oladi", - deb ko'rsatgan edi.


XX-XXI asrlarda jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rni juda katta bo'lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Yevropa qit'asi va Shimoliy Amerika materigi joylashgandir

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini rvojlanishi asosan tabiiy resurslarni qanday foydalanishlik darajasiga va shuningdek uzoq yillarga mo'ljallangan zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotidagi o'zgarishlarga bog'liqdir.

Shuning uchun ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalaniladi, ishlab chiqarishda esa energetika qurʼati pasayishiga yo'l ko'yilmaydi.

Masalan, AQSh ishlab chiqarishida asosan kam xarajat qilish evaziga yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulot XX asr davomida 10 baravarga, qishloq xijjalik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 5-6 baravarga ortgan edi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi qanchalik yuqari bo'lmashin, narx-navoning ko'tarilishi ushbu davlatlarda yalpi ishlab chiqarish yuqoriligidicha qolmoqda.



Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda).

Masalan gen-injineriya va bioteknologiya sohasida erishilgan yutuqlarga asoslanib rivojlangan mamlakatlarda q/x o'simliklari hosildorligi va q/x xayvonlari mahsuldarligi boshqa mamlakatlarga qaragana 2-3 vaxatto bundan ham yuqoriligini bilamiz. Masalan, jahonning rivojlangan mamlakatlarning barchasi qayta ishlash sohalari, shu jumladan q/x mahsulotlarini qayta ishlash sohalari, yaxshi yo'lga qo'llgan bo'lib, ular asosan tejamkorlik bilan samarali foydalanishning ijtimoiy dasturlari asosida amalga oshirilmoqa.

Yana bir misol. Juhon xo'jaligining rivojlanishida rivojlangan mamlakatlarning qaydarajada sanoat energetikasi bilan ta'minlanganligi ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar o'zlarini ishlab chiqarayotgan sanoat energetikasi mahsulotlaridan tejamkorlik bilan samarali foyalanib kelmoqdalar.

Masalan, 1970-2000 yillar davomida AQSh sanoat energetikasi is'temoli, shu jumlaan q/x-da energetika is'temoli 40%ga, Yaponiya va Fransiya davlatlari esa, 30%ga qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lishgan edi.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishia yetakchi rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanaa, italiya) iqtisodiyoti muhim rol o‘ynamoqda.

Ushbu mamlakatlar ulushiga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 79-80% va dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 59-60%, tovarlar eksporttning 60-61% va xizmat ko‘rsatish sohalarining 49-50% ga to‘g‘ri kelmoqda

Rivojlangan davlatlar guruhiga kirgan davlatlar

Rivojlangan mamlakatlarga AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Franitsiya, Italiya kabi mamlakatlar kiradi. Jahon hududining 8%ini band etgan bu mamlakatlarda yer yuzi aholisining 14%i yashaydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan mamlakatlar birinchi guruhni tashkil etadi.

2-guruh mamlakatlarga Shvetsiya, Shveytsariya, Gretsya, Turkiya, Kanada, Avstriya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika kabi mamlakatlar kiradi.

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari:

1) Fan-teknika yutuqlaridan foydalanish, xo‘jaliklarni yiriklashtirish talab etadigan sanoatlashish, konsentratsiyalash jarayoni kuchayishi natijasida mayda va o‘rtahol fermer xo‘jaliklari ommaviy ravishda tugab bormoqda.

Masalan, intensivlashtirish hisobiga AQShda oxirgi 25 yil mobaynida 3 mln. mayda fermer singan.

2) Yirik mamlakatlar konyunkturasini saqlab qolish maqsadida qishloq xo‘jaligini subsidiyalash tizimi qo‘llanmoqda.

Masalan, Angliyada subsidiya tariqasida fermerlarga azot va fosfor o‘g‘itlari qiymatining 40-50%i beriladi.

Fransiyada subsidiya hisobiga sug‘orish ishlariga sarf etilgan mablag‘ning 52%, elektrish ishlari sarfining 45%i va yo‘l qurilishi ishlari xarajatlari qoplanadi.

AQShda yirik fermerlar 9% bo‘lib, ular federal byudjetdan qolgan 91% fermer oladigan miqdorda mablag‘ oladilar.

3) Oxirgi vaqtida AQShda ko‘proq vertikal integratsiya joriy etilmoqda.

Bunda ishlab chiqarishning hamma bosqichi (mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishslash va sotish) shartnomaga asosida yirik monopoliya nazoratida bo‘lib, mayda va o‘rta fermerlar esa yollanma ishchilarga aylanib qoladilar.

4) Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini industrial qayta qurish oxirgi 40-50 yillar mobaynida rivojlandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mashinalar tizimining rivojlanish sur’ati sustligi tufayli qishloq xo‘jaligi taraqqiyotda sanoat tarmog‘iga nisbatan 100 yillarcha orqada qolgan edi. Bunday sharoitda qishloq xo‘jaligida asosan mayda xo‘jaliklar faoliyat ko‘rsatadi. Jamg‘armalar yetishmasligi sababli ular mashina tizimini joriy etish imkonidan mahrum edi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng rivojlangan mamlakatlar qishloqlarida o‘zaro munosabatlar, taraqqiyot jarayoni keskin ravishda tezlashdi va davlat monopolistik kapitali qishloq xo‘jaligiga kirib bordi. AQShda bu jarayon kompleks mexanizatsiya, ishlab chiqarishni elektrlashtirish va avtomatlashtirishni joriy etish negizida qishloq xo‘jaligining texnika bazasini tubdan qayta qurish va qishloq xo‘jalik korxonalarini industrial tipdag‘i korxonalarga aylantirish bilan bir vaqtida ro‘y berdi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Skandinaviya qishloq xo‘jaligini taraqqiy ettirish sohasida AQSh bosib o‘tgan yo‘lidan bormoqdalar.

Bu mamlakatlarda keyingi yillarda yangi texnikani joriy etish bazasida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini konsentratsiyalash jarayoni kuchaymoqda. Natijada yuz minglarcha mayda dehqon xo‘jaliklari va fermerlar xonavayron bo‘lmoqdalar.

5) Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining intensivligi mexanizatsiya va tovar berish, ixtisoslashish yuksak darajadaligi bilan farqlanadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng bu hududlarda sanoat tez sur'at bilan rivojlandi. Mehnat qurollari, sanoat mollarni qishloq xo'jaligiga sotib, sohalar intensivligini ta'minlash yo'lga qo'yildi. Qishloq xo'jaligining mashina tizimiga o'tishiga 10-15 yil kerak bo'ldi.

Qishloq xo'jaligining mashina tizimiga o'tishiga 10-15 yil kerak bo'ldi.

O'tgan asrning 60-yillardan hozirga qadar, qishloq xo'jaligini traktorlar bilan ta'minlash Niderlandiyada 7, Germaniya, Daniya, Belgiyada 10, Italiyada 17 marotaba oshdi.

Bu mamlakatlarda shuningdek, mineral o'g'itlar bilan ta'minlash va ularni ishlatalish ham shu davrda 5-10 marotaba ko'paydi.

Talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriqlar:

AQSh eksportining asosiy ko'rinishlari qaysilardan iborat?	Rivojlangan mamlakatlarda aholining necha foizi qishloq xo'jaligi bilan band?
A) Kapital eksporti B) Sanoat mahsulotlari eksporti C) Xizmatlar eksporti D) Istemol tovarlari eksporti	A) 2-4% B) 25% C) 10-12% D) 15-20%
Birinchi guruh rivojlangan mamlakatlarga qaysi davlatlar kiradi?	G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Skandinaviya qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish sohasida qaysi mamlakat bosib o'tgan yo'lidan bormoqdalar. A) Yaponiya B) Germaniya C) AQSh D) Osiyo
A) AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya B) AQSh, Braziliya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya C) AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya D) AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Shveytsariya	
Intensivlashtirish darajasini aniqlash usuli?	Dunyo axolisining necha foyizi AKSh Germaniya va Yaponiyaga tug'ri keladi A) 2% B) 10% C) 4% D) 8%
A) Asosiy, aylanma fondlar qiymatini qishloq xo'jalik yer maydoniga bo'lib; B) Yalpi mahsulot sumimasini aholi soniga taqsimlab; C) Ishlab chiqarish xarajatlarini fondlar summasiga bo'lib; D) Yalpi tushumni jami xarajatga bo'lib;	
AQShning nechta shtatida paxta yetishtiriladi?	AQShda qishloq xo'jaligida aholining necha foizi band?
A) 42 B) 18 C) 14 D) 20	A) 5-8% B) 3-4% C) 10-12% D) 1-3%

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Rivojlangan mamlakatlarga qaysi mamlakatlar kiradi?
2. Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Amerika Qo'shma Shtatlari qishloq xo'jaligi haqida-chi?

Dars yakuni: O'qituvchi darsga yakun yasar ekan, muhokama qilingan masalalar bo'yicha umumiyl xulosalarini bayon qiladi, darsda faol ishtirot etgan talabalarni baholaydi, mustaqil ishslash uchun vazifalar beradi. Qo'shimcha savollarga javob berib, darsni yakunlaydi.

4- mavzu. Yetakchi mamlakatlar qishloq xo‘jaligining tajribasini rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbiq etish

Darsning maqsadi: Qishloq xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda rivojlangan mamlakatlarning o‘rni, ulardagи tajribalarni rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llashning natijalari haqida bilimlar berish.

Semenar rejasi:

1. Amerika Qo‘shma Shtatlarida qishloq xo‘jaligi
2. Buyuk Britaniya qishloq xo‘jaligi.
3. Yevropa mamlakatlari qishloq xo‘jaligi

Darsning shakli: Seminar savollari bo‘yicha guruh taqsimoti.

Darsga oid jihozlar: -Markerlar, flamaster, plakatlar, kerakli adabiyotlar, dunyo xaritasi.

Izoh: Marker va plakat bo‘lmagan taqdirda sinf taxtasi, bo‘rdan foydalanish mumkin.

Darsning tuzilishi: -Tashkiliy daqiqa,

- Yangi mavzu bo‘yicha guruhda ishlash,
- Guruh taqdimoti,
- Guruh ishining yakuni,
- Darsga yakun yasash va vazifa.

Ma'lumot uchun materiallar:

- 1.B.T.Salimov va boshqalar “Jaxon qishloq xo‘jaligi”-T.: 2004 y.
- 2.Tursunxodjaev T.L. - Jalon qishloq xo‘jaligi va uning taraqqiyoti - T.: 1993y
3. G.Nazarova.Xalqaro iqtisodiy aloqalar. Toshkent. 2005yil.
4. Rustamova I.B, Narinboeva G.K .Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv ko‘llanma. Toshkent. ToshDAU nashr tahririysi. 2007y.
- 5.Vaxobov A.B., Tadjibaeva D.A.,Xajibakiev Sh.X. “Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ”/ Moliya T-2011.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Shimoliy Amerika qit’asida joylashgan bo‘lib, eng yirik kapitalistik mamlakat, jahon imperializm tizimining markazi va tayanchidir.

Hududi 9363 ming km², aholisi 239 mln. nafar. Qishloq xo‘jaligi yuksak tovarliligi, texnika bilan a’lo darajada quollanganligi, tor ixtisoslashganligi, yollanma mehnatdan keng foydalanishi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonida yuqori darajadagi konsentratsiya joriy etilgan. Agar makkajuxori doni 48 shtatda, mosh asosan 5 shtatda, bug‘doyning 72%ni asosan 6 shtatda, kartoshkaning 50%ni Ayova va Vashington shtatlarida yetishtiriladi. Fermerlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish uchun (500 mln.tonna) 25 ming referejerator vagonlari, 140 ming avtoreferejerator xizmat qiladi. Maxsus avtomobillardan har biri 80 bosh qoramol, 260 bosh cho‘chqa va 6 ming bosh parrandani tashish imkoniga ega. Kaliforniya shtati mamlakat bo‘yicha olinayotgan pomidor mahsulotlarining 90%ini yetishtiradi. Texas shtati mamlakatda mol go‘shtini yetishtirish bo‘yicha 1-o‘rinni egallaydi. Unda 226 qushxona, 76 ta go‘sht kombinati mavjud. AQShda meva, sabzavot, poliz, kartoshka, go‘sht, tuxum kabi mahsulotlarni sanitariya-gigena talablari darajasida saqlash uchun ombor va muzxonalar yetib ortadi.

AQSh dehqonchiligidagi sug‘orish tizimi 15% maydonda joriy etilgan. Sug‘oriladigan yerlarda yetishtirilayotgan mahsulot mamlakatda yetishtirilayotgan mahsulotning uchdan bir qismini tashkil etadi yoki uning qiymati 40 mlrd. dollarga teng. Sug‘orish ishlarida mexanizatsiyadan keng foydalaniladi. Masalan, fermerning 65 hektar yerini sug‘orish uchun 1 hektarga 1,54 kishi/soati 350 dollar kapital mablag‘ sarflanadi.

AQSh har yili qiymati 140-150 mlrd. dollar bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qiladi. Ularning 45 mln. tonnasi makkajo‘xori doni, 38 mln. tonnasi bug‘doy, 20 mln. tonnasi loviyadir.

	D) Hammasi to‘g‘ri
Xalqaro valyuta fondi tashkil topgan A) 1943 yil V) 1944 yil S) 1945 yil D) Hammasi to‘g‘ri	Valyuta rejimi –bu A) Valyuta ayirboshlash kursini aniqlash asosidagi mexanizm V) Kursni aniqlash mexanizmi S) Valyuta ayirboshlash kursi D) Hammasi to‘g‘ri
Valyuta kursi – bu A) Milliy valyutalar o‘rtasidagi nisbat V) Bir mamlakat valyutalar bahosi S) Xorijiy pul birliklari D) Hammasi to‘g‘ri	Panjaralash-bu A) Valyuta xatarlarini sug‘urtalash usuli V) Valyuta xatarlarini oldini olish S) Sug‘urtalash usuli majmuasi D) Hammasi to‘g‘ri

Nazorat uchun savollar:

1. Valyuta kursi qanday aniqlanadi?
2. Valyuta pariteti nima?
3. Jahon valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib bering?
5. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimada?
6. Yamayka tizimini vujudga kelishining sabablari nimada?
7. yevrodollar nima?
8. yevroning kiritilishi yeI davlatlari va shuningdek, jahon iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko‘rsatdi?
9. Xalqaro moliya bozorlaridagi tendensiyalarni gapirib bering.

14-mavzu. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini tutgan o‘rni

Darsning maqsadi: Qishloq xo‘jaligi – O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo‘jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va kayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo‘lib ham hisoblanadi

Semenar rejasি:

- 1.Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishi va erishilgan natijalar
- 2.Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari
- 3.Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar
- 4.Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari

Darsga oid jihozlar: Markerlar, flamaster, plakatlar, kerakli adabiyotlar, tarqatma materiallar.

Darsning tuzilishi: Tashkiliy daqiqa, guruhlarda ishlash, babs-munozara, dars yakuni.

Noa'nanaviy amaliy mashg‘ulot: "Aqliy hujum" bilan boshlanadi. Chunki talablarda yetarli bilim va ko‘nikmalar mavjud.O‘qituvchi buni "Aqliy hujum" orqali tasdiqlaydi va shundan so‘ng talabalarni guruhlarga bo‘lib, ularga vazifalarini bajarishga ruxsat beradi.

Amaliy mashg‘ulot usuli: Bahs-munozara

Ma'lumot uchun materiallar:

1. Karimov I. A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar “O‘zbekiston” 2009 yil.


2. Karimov I.A “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” -Toshkent, “O’zbekiston” 2010 y. 1.B.T.Salimov va boshqalar “Jaxon qishloq xo‘jaligi”-T.: 2004 y.
- 3.Tursunxodjaev T.L. - Jahon qishloq xo‘jaligi va uning taraqqiyoti - T.: 1993y
4. G.Nazarova.Xalqaro iqtisodiy aloqalar. Toshkent. 2005yil.
6. Rustamova I.B, Narinboeva G.K .Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv ko‘llanma. Toshkent. ToshDAU nashr tahririyyati. 2007y.
- 7.Vaxobov A.B., Tadjibaeva D.A.,Xajibakiev Sh.X. “Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ”/ Moliya T-2011.

Qishloq xo‘jaligi – O’zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishslash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo‘jaligi respublikamizning iste’mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va kayta ishslash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo‘lib ham hisoblanadi.

2013 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o‘rinlari bilan ta‘minlab kelmoqda. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mustaqillik yillarda muhtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita rahnomoligida qishloq xo‘jaligini isloh qilish bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog‘ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida qishloq xo‘jaligining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘sib bormoqda.



Respublikada qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, (foizda).


O‘tgan 2005-2011 yillar davomida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik barqaror o‘sish sur’atlari dinamikasig ta‘minlandi. Xususan, bu ko‘rsatkich 2005 yilda 105,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2011 yilda 106,6 foizga teng bo‘ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti salmog‘ining 2005 yildagi 26,3 foizdan 2011 yilda

17,1 foizga pasayishi ijobjiy holdir. Bu avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi.

Yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini, urug‘chilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o‘ylangan ishlar amalga oshirildi.

Buning samarasи o‘laroq, 1990-2011 yillarda don yetishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobar, uzum 1,3 barobardan ziyod, go‘sht (tirik vaznda) 1,9 barobarga, sut 2 barobardan va tuxum 2,4 barobardan ko‘proq oshganligi fikrimizning dalilidir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya’ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldarligini oshirish hisobidan ta’milanmoqda.



O‘zbekistonda asosiy turdagи qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining o‘zgarish dinamikasi, sentner hisobidan.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan 20 yildan ortiqroq davr mobaynida asosiy turdagи ekinlarning hosildorligi muttasil o‘sib borish sur’atiga ega bo‘lgan. Xususan, 2010 yilda 1990 yilga nisbatan paxta hosildorligi gektariga 22,6 sentnerdan 25,6 sentnerga yoki 113,3 foizga, donli ekinlar hosildorligi 20,2 sentnerdan 44,2 sentnerga yoki 218,8 foizga, kartoshka hosildorligi 80 sentnerdan 194,9 sentnerga yoki 243,6 foizga, sabzavot hosildorligi 192,0 sentnerdan 252,5 sentnerga yoki 131,5 foiz ga va poliz hosildorligi 115 sentnerdan 192,6 sentnerga yoki 167,5 foizga oshgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 1990 yilda respublikamiz aholisi iste'moli uchun zarur bo‘lgan g‘allaning 82 foizi, go‘sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo‘lsa, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat masulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobidan aholining asosiy iste'mol ma'sulotlariga bo‘lgan ehtiyoji deyarli yuz foiz o‘z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta’milanmoqda. Jumladan, agar 1991 yilda aholi jon boshiga nisbatan 24,0 kg meva, 24,0 kg uzum, 138,6 kg sabzavot, 15,1 kg kartoshka va 39,0 kg poliz mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lsa, 2011 yilga kelib aholi jon

boshiga 60,1 kg meva (250,4 foiz), 35,1 kg uzum (146,2 foiz), 225 kg sabzavot (162,3 foiz), 60,5 kg kartoshka (400,6 foiz) va 42,0 kg poliz mahsulotlari (107,6 foiz) yetishtirildi.

O‘zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagি qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlаб chiqarish dinamikasi, kg

Mahsulotlar turi	1991 yil	2011 yil	2011 yil 1991 yilga nisbatan, foiz da
Meva	24,0	60,1	250,4
Uzum	24,0	35,1	146,2
Sabzavot	138,6	225,0	162,3
Kartoshka	15,1	60,5	400,6
Poliz	39,0	42,0	107,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi

Mustaqillik yillarda agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil islohotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish miqdori barqaror o‘sib bordi. Jumladan, 2011 yilda 1991 yilga nisbatan aholi jon boshiga go‘sht mahsulotlari iste’mol qilish 31 kg.dan 38 kilogramm yoki 122,6 foizga, sut mahsulotlari 183 kilogrammdan 239 kilogrammga yoki 130,3 foizga, tuxum 97 donadan 138 donaga yoki 142,3 foizga oshgan.

Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

O‘zbekistonda 2000-2012 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi ... A. ... 1,2 barobar oshdi. B. ... 2,1 barobar oshdi. C. ... 1,5 barobar oshdi. D. ... 2,5 barobar oshdi.	O‘zbekistonda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini 2013yilda qanchaga yetdi? A. 18 mingdan ziyod. B. 16 mingdan ziyod C. 20 mingta. D. 19mingta.
2012 yilda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi ... A. ... 46 foizni tashkil etdi. B. ... 60 foizni tashkil etdi. C. ... 70 foizni tashkil etdi. D. ... 64 foizni tashkil etdi.	O‘zbekiston g‘alla mustaqilligiga qachon erishdi va O‘zbekiston Respublikasi bug‘doy yetishtiruvchi davlatlar o‘rtasida yalpi hosil bo‘yicha nechanchi o‘rinda turadi? A. 2004 yil, 48 o‘rin. B. 2000yil, 25 o‘rin. C. 2006yil, 35o‘rin. D. 2002yil, 44 o‘rin.
O‘zbekiston jahon bankiga a’zo bo‘ldi A)1992 yil 21 sentyabr V) 1993 yil 3 sentyabr S) 1994 yil 10 sentyabr D) Hammasi to‘g‘ri	2013 yilda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati necha foizni tashkil etdi? A. 6,6 foizni. B. 8,1 foizni. C. 9,5 foizni. A. 7,0 foizni
Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang. A. Texnik-texnologik, tashkiliy, ma’muriy-huquqiy. B. Tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy,	Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini maqbullashtirish jarayoni nimani anglatadi? A. Ekin maydonlari tarkibini o‘zgartirishni. B. Zarar keltirib ishlayotgan, istiqbolsiz va to‘lovga noqobil

<p>ijtimoiy, institutsional.</p> <p>C. Mulkiy-tarkibiy, yerdan foydalanish, suv va suvdan foydalanish, moliya-kredit, narxnavo.</p> <p>D. Naslchilik, seleksiya, intensiv bog'lar barpo etish, baliqchilik, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish.</p>	<p>fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini birlashtirish va yiriklashtirish orqali ularning samaradorligini yuksaltirishni.</p> <p>C. Paxta, g'alla, sabzavot va poliz ekinlari joylashuvining maqbul chegaralarini belgilashni.</p> <p>D. yer maydoni katta, boshqarish qiyin bo'lgan fermerlar yerlarini ixchamlashtirishni.</p>
---	---

Nazorat uchun savollar:

- 1.O'zekistonda qishloq xo'jaligining o'rni.
2. Mamlakat YaIM da qishloq xo'jaligini ulushi.
3. Qishloq xujaligidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar.
4. O'zbekistonda eksport salohiyatida qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulushi.

Dars yakuni:O'qituvchi darsga yakun yasan ekan,muhokama qilingan masalalar bo'yicha umumiy xulosalarni bayon qiladi, darsda faol ishtirok etgan talabalarni baholaydi,mustaqil ishslash uchun vazifalar beradi.